

AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISHNING SAMARALI VOSITALARI

Qo'chqorov Isahon Musahonovich
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Maqolada ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyasi vositalaridan foydalanishning zamonaviy usullari ahamiyati atroflicha yoritilgan.*

***Аннотация.** В статье подробно рассматривается значение современных методов использования средств информационных и коммуникационных технологий в образовательном процессе.*

***Annotation.** The article details the importance of modern methods of using information and communication technology tools in the educational process.*

***Tayanch so'zlar:** masofaviy ta'lim, internet, masofadan o'qish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron darslik, onlayn ta'lim.*

***Ключевые слова:** дистанционное образование, интернет, дистанционное обучение, информационно-коммуникационные технологии, электронный учебник, онлайн-обучение.*

***Keywords:** distance education, internet, distance learning, information communication technologies, electronic textbook, online education.*

Xozirgi davrda oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruvning axborot tizimlaridan erkin foydalana oladigan mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish faqatgina kasbiy professional faoliyat samaradorligini oshiribgina qolmay, balki bo'lajak mutaxassislarda dunyoqarashni va axborot madaniyatini shakllantirishga, turmush tarziga, ijtimoiy sohadagi faoliyatiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Zamonaviy kompyuter vositalari va multymediya texnologiyalari ta'lim jarayonida didaktik material tayyorlash vazifasini yengillashtiradi. Kompyuter bilan didaktik

materiallarni uyg'unlikda qo'llash o'rganilayotgan mavzuni talabalar tomonidan o'zlashtirishda katta yordam beradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi asosiy tamoyillardan biri - bu ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jixatidan islox qilish uchun o'qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash, yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni, pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish hisoblanadi. Ammo ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq jarayon. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi.

Yangi o'qitish usullari talabalarning e'tiborini ta'lim jarayoniga jalb eta bilish muxim sanaladi. Bunda albatta talaba doimiy ravishda izlanish va xarakatda bo'lishi lozim, ya'ni berilgan ma'lumotlarni ochishi, qayta ishlashi va olgan bilimlarni aniq masalalar yechishda qo'llashi lozim. Axborot texnologiyalarning qo'llanilishi o'qitishning barcha shakllarida (ma'ruza, amaliyot, laboratoriya va mustaqil ta'lim) tezlik bilan o'z samarasini beradi. Komp'yuter va dasturiy maxsulotlarning beqiyos darajada rivojlanishi axborot texnologiyani ta'limda qo'llashga keng imkoniyatlar ochib bermoqda. O'quv materiallarini mul'timedia tizimlari ko'rinishida tayyorlash va ularni komp'yuter tarmoqlari va uzatish vositalari orqali ko'pchilikka taqdim etish mumkin. Komp'yuter texnologiyalarining ta'lim tizimiga keng joriy etilishi barcha turdagi o'qitish shakllarining o'quv materiallarini qaytadan ko'rib chiqishni talab etadi. Xar bir o'qitish shakliga mos ravishda mul'timediali elektron o'quv materialari tayyorlash kerak bo'ladi.. O'quv materiallarining elektron shakli an'anaviy qog'oz shaklidan farqli ravishda o'rganishga qulay muqobil variantdir. Elektron shakldagi o'quv materiallarining eng asosiy yutug'i – uning ixchamligi va tejamligidadir.

Bunday interaktiv o'qitish usullarining yana bir yutug'i talaba o'rgangan bilimlarini o'z-o'zini tekshirish testlari orqali tekshirib olishidir. Shuning uchun xar bir fandan barcha o'quv materiallarini(darslik,o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, laboratoriya ishlari, nazorat savollari) elektron shaklda saqlash va nomlash talab

etiladi. An'anaviy usulda ma'ruza darslarida doska, mel va plakatlar kabi vositalardan ko'p foydalanilgan. Ular xam o'z vaqtida yetarli darajada samara berib kelgan. Lekin plakatlar statistik xarakterga ega bo'lib ularga o'zgartirish kiritib bo'lmagan. Doskaga ma'lumotlarni yozib o'chirishga ko'p vaqt sarflangan. O'z-o'zidan ma'lumki belgilangan materiallarni talabalar e'tiboriga to'liq taqdim etish imkoniyati chegaralangan.

Kompyuterga ulangan sonli videoprojektorlarning qo'llanilishi an'anaviy o'qitish usulidan axborotlarni elektron shaklda tasvirlash imkoniga ega yangi integrallashgan o'qitish usuliga o'tkazdi. Ma'ruza o'qituvchisi doska va mel o'rniga axborotlarni turlicha ko'rinishlarda tasvirlovchi juda katta imkoniyatga ega bo'lgan zamonaviy vositalarga ega bo'ldi. Bunda o'qituvchi o'quv materialini taqdim etish shakli va ketma-ketligini o'zi aniqlaydi. Talabalar berilayotgan materiallarning asosiy qisminigina konspekt qilib, ko'proq vaqtini tinglashga va savollar berishga sarflashi, o'quv materialini mustaqil o'rganishda adabiyotlar qidirishga ko'p vaqt sarflamasdan, o'quv materialining elektron shaklda tayyor o'quv materiallardan o'rganishi mumkin bo'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia ma'ruzalarda o'quv materialining grafik, tasvir va animatsiyalar bilan keng qamrab olinishi o'qituvchiga mavzu bo'yicha ko'proq axborot berish va tushuntirish uchun chegaralangan vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi. Taqdim etilayotgan materiallarning vizualligi talabalarning esda saqlab qolish darajasini xam oshiradi. O'quv materialining elektron shaklda bo'lishi, materialni(matnli, grafikli, ovoqli, animatsion) kompyuter ekranida ko'rish, o'rganish, o'zgartirish kiritish va yozib olib yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

Mavjud lokal tarmoq orqali topshiriqlarni ko'pchilik(korporativ) bo'lib yechish va axborot almashish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Kompyuter sinfidagi kompyuter va dasturiy vositalar talabalarga o'rganilayotgan mavzuga individual yondashish, o'z fikrini shakllantirish va faollikni oshirish imkonini beradi. O'qituvchi server kompyuter orqali har bir talabaning o'zlashtirish jarayoni va berilgan topshiriqlarning qanday bajarilganligini nazorat qilish va qayd etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday o'qitishni tashkil etishda o'qituvchidan elektron resurslarni yaratish

dasturlari bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlikni xamda auditoriyada foydalanuvchi interfeysini ta'minlovchi texnik vositalarning bo'lishligi talab etiladi. Xulosa qilib aytganda elektron shaklda tayyorlangan o'quv materillari o'qitishning barcha shakllarida yuqori sifat va samarani kafolatlaydi. Demak, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanilganda ta'limtarbiya ishlarining samaradorligi oshadi, va barkamol avlod va yetuk mutaxassislarni tarbiyalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalari muhim omil bo'lib hisoblanadi

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ш.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, 2016. 56 б.
2. Амирсайдова Ш.М. Мутахассислик фанлари бўйича маъруза машғулотлари ташкил этиш. Power Point тақдимоти. <http://reja.tdpu.uz>
3. Л.Мухторова, М.Мирзаев, М.Норбошева. Ўқув машғулотларида таълим технологиясини лойиҳалаштириш ва режалаштириш. Термиз, 2013. – 44 б.
4. Abdurazzakov Yusufjon Usmailovich. FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TIL VA MULOQOTDAGI O'RNl. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) 2023.- 340 -343 b.
5. Abdurazzakov Yusufjon Usmailovich. TILSHUNOSLIKDA MULOQOT VOSITASI. **JOURNAL OF LANGUAGE AND LIGUISTICS**. 2023.- 6 -10 b.
6. Abdurazzoqov Yusufjon Usmoilovich. (2023). SOTSIOLINGVISTIKA VA LINGVOSOTSILOGIYA. Innovative development in educational activities, 2(9), 32–36. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7937864>
7. Abdurazzakov Yusufjon Usmailovich. SOTSIOLINGVISTIKA VA LINGVISTIK TADQIQOT METODLARI. *Международный современный научно-практический журнал Научный Фокус*. 2023.- 112 -117 б.
8. Abdurazzoqov Yusufjon Usmoilovich. (2023). SOTSIOLINGVISTIKANING TILSHUNOSLIKKA OID FAN SIFATIDAGI ZARURIYATI. Innovative

Development in Educational Activities, 2(9), 28–31.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7937802>

9. Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna. TARJIMADA FRAZEOLOGIK IBORALARNING MILLIY XUSUSIYATI VA ULARNING BADIY ASARLARDAGI TASVIRIY IFODASI. CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES, 2(2), 112–116. (2023)
10. Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna. ФРАЗЕМАЛАРНИНГ ТАРЖИМА УСУЛЛАРИ ВА УЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МИЛЛИЙ-МАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРНИНГ ИФОДАЛАНИШ ЖИХАТЛАРИ. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM. 2(2), 168–172. ,(2023).
11. Юсуфжонова Шахло Мухторовна. НЕМИС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ ТУРГУН БИРИКМАЛАРНИНГ ТАРЖИМА ҚИЛИНИШ ТАРАҚҚИЁТИ. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(2), 43–48., (2023).
12. Шахло Мухторовна Юсуфжонова. Миллий ва маданий хусусиятлар доирасида немис ва ўзбек тилларидаги фразеологик бирликларнинг тавсифланиши. "Science and Education" Scientific Journal. Volume 4 Issue 2. 1714-1715. February 2023 /.
13. Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna. Development of Translation of Phraseological Units in German and Uzbek Languages. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. Volume: 02 Issue: 02 / 2023.
14. Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna, THE NATIONAL CHARACTER OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS IN TRANSLATION AND THEIR REFLECTION IN WORKS OF ART. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Volume-11/ Issue-2/ 2023.
15. Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna. THE HISTORY OF "WISE WORDS" IN LINGUISTICS, JOURNAL OF LANGUAGE AND LIGUISTICS. 29–31.

(2023). THEORY OF "WISE WORDS" IN LINGUISTICS
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10076092>